BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Madraximova Mohiraxon Imomaliyevna

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv va raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi tahlil qilingan. Zamonaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida raqobatbardosh, kreativ va ijtimoiy moslashuvchan kadrlar tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni, ularning tasnifi hamda ta’lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, loyihaviy ta’lim va raqamli texnologiyalarning talabalar mahoratini oshirishdagi samaradorligi empirik va nazariy jihatdan asoslab berilgan hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar , bo‘lajak o‘qituvchi, interfaol ta’lim, raqamli transformatsiya, kreativlik, kasbiy tayyorgarlik, keys-stadi, blended learning, pedagogik mahorat.*

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda jahon ta’lim makonida kechayotgan tub islohotlar, axborot oqimining shiddatli o‘sishi va sun’iy intellekt texnologiyalarining hayotimizga kirib kelishi pedagog kadrlar tayyorlash tizimi oldiga mutlaqo yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy umumta’lim maktablariga faqatgina ma’lum bir fan sohasida nazariy bilimga ega bo‘lgan targ‘ibotchi emas, balki o‘quvchilarning individual xususiyatlarini tushunadigan, loyihaviy fikrlay oladigan va kutilmagan pedagogik inqirozlardan chiqib keta oladigan kompetentli pedagoglar zarur.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, Milliy dasturlar va oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifani an’anaviy, reproduktiv (yodlash va qayta aytib berishga asoslangan) ta’lim usullari bilan hal etib bo‘lmaydi. Shu bois, oliy pedagogik ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli integratsiya qilish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

XXI asr – yuksak texnologiyalar, axborot oqimining shiddatli o‘sishi va intellektual mehnatning qadrlanishi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim drayverlaridan biriga aylandi. Shu bois, globallashuv va raqamli transformatsiya davrida oliy pedagogik ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilayotgan asosiy talab — faqatgina ma’lum bir fan doirasida tayyor bilimlarni o‘zlashtirgan diplomli mutaxassis emas, balki keng dunyoqarashga ega, tez o‘zgaruvchan muhitga moslashuvchan, kreativ fikrlay oladigan va innovatsiyalarni ta’lim amaliyotiga dadil joriy eta oladigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ularning nazariy bilimlarini amaliyotdagi kutilmagan pedagogik vaziyatlarda erkin, ijodiy va samarali qo‘llay olishini anglatadi.

Ushbu maqsadga erishishda esa oliy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’lim mazmuni va shakllarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

1. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi: Mohiyat va tuzilish Ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari turlicha talqin etiladi. Pedagog olim A.V.Xutorskoyning fikricha , kompetensiya - bu shaxsning muayyan sohadagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq sifatlar (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va faoliyat usullari) majmuidir. Kompetentlik esa shaxsning ushbu kompetensiyalarga egalik darajasini ifodalaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi ko‘p qirrali fenomen bo‘lib, quyidagi asosiy bloklarni o‘z ichiga oladi:

Gnostik (bilish) tarkibiy qism: O‘z fani, pedagogika va psixologiya sohasidagi fundamental bilimlar.

Loyihaviy (proyektli) tarkibiy qism: Dars jarayonini, darsdan tashqari tadbirlarni va o‘quvchining rivojlanish trayektoriyasini oldindan rejalashtirish qobiliyati.

Kommunikativ tarkibiy qism: Ta’lim subyektlari (o‘quvchi, ota -ona, rahbariyat, hamkasblar) bilan konstruktiv va empirik muloqot o‘rnatish mahorati.

Refleksiv tarkibiy qism: O‘z faoliyatini tankidiy tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarni xolis baholash hamda o‘z ustida mustaqil ishlash (samorazvitiye) istagi.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning tasnifi va funksiyalari innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda, ta’lim maqsadlariga erishishning kafolatlangan natijasini ta’minlovchi, ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini yangilab boruvchi tizimli faoliyat tushuniladi. Oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi innovatsion texnologiyalar yuqori samara beradi:

Muammoli va vaziyatli ta’lim texnologiyalari (Interactive and Problem-based learning). Ushbu guruhga Keys-stadi (Case-study) va Pedagogik kvazi-professional o‘yinlar kiradi. Bunda talabalarga nazariy savol emas, balki maktab hayotida uchraydigan real muammoli vaziyat taqdim etiladi.

Talabalar kichik guruhlarda ushbu vaziyatni tahlil qiladilar, pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayanib, muammoning bir nechta yechimini taklif

etadilar. Bu jarayonda ularda tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va metodik mahorat kompetensiyalari rivojlanadi.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi (Project-based learning)

Talabalar semestr davomida muayyan amaliy muammoni hal qilishga qaratilgan loyiha ustida ishlaydilar. Masalan, "Kelajak maktabi uchun raqamli didaktika vositasini yaratish ". Bunda ular nafaqat nazariyani o‘rganadilar, balki tayyor mahsulot (prezentatsiya, videorolik, elektron ishlanma) yaratadilar. Loyihaviy ta’lim talabalarda jamoada ishlash (teamwork) va boshqaruvchanlik (liderlik) ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Aralash ta’lim (Blended learning) va Raqamli texnologiyalar Zamonaviy o‘qituvchi virtual makonda erkin harakat qila olishi shart. Ta’lim jarayonida Flipped Snassroom (" To‘ntarilgan sinf "), Mγγdle, Google Klassroom platformalaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning AKT-kompetensiyasini oshiradi. Ular nafaqat tayyor raqamli mahsulotlardan foydalanishni, balki o‘zlari mustaqil ravishda onlayn testlar, interaktiv taqdimotlar yaratishni o‘rganadilar.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Oliy pedagogik ta’lim muassasasida talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan kuzatuvlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning kasbiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuvga asoslangan metodik tadbirlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qildi. Ayniqsa, pedagogik amaliyot jarayoniga integratsiyalashgan innovatsion usullar – loyihalash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, reflektiv faoliyat, hamda trening va seminar mashg‘ulotlari orqali talabalar o‘quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga singdirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistik tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, pedagogika yo‘nalishidagi asosiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarining shakllanish darajalarini baholash imkonini berdi. O‘tkazilgan dastlabki va yakuniy o‘lchov natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha mezonlar bo‘yicha talabalarning bilim darajasi tajriba guruhida yakuniy bosqichda ancha yuqori bo‘lgan. Tajriba-sinov ishlarining natijalariga ko‘ra, o‘qitish samaradorligini baholash mezonining sezilarli darajada oshgani hamda bilish darajasini o‘lchovchi ko‘rsatkichlarning musbat o‘zgarishi aniqlandi. Bu esa pedagogika yo‘nalishidagi asosiy fanlarni integrativ yondashuv orqali o‘qitish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan mexanizmning samarali ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar shunchaki " yordamchi vosita " emas , balki ta’lim sifatini kafolatlovchi asosiy dvigateldir . Innovatsion texnologiyalar talabani ta’lim markaziga olib chiqadi va uning shaxsiy-kasbiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib , oliy pedagogik ta’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. O‘quv rejalarini modernizatsiya qilish: Pedagogika va metodika fanlari bloklarida amaliy-innovatsion mashg‘ulotlar (keys-stadi, treninglar) soatini ko‘paytirish.

2. Raqamli didaktikani joriy etish: Bo‘lajak o‘qituvchilarga sun’iy intellekt va virtual borliq vositalaridan darsda xavfsiz va samarali foydalanish metodikasini o‘rgatish.

3. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tizimlashtirish: Talabalarning mustaqil ishlarini faqat referat yozish bilan cheklamay, ularga muayyan maktab muammosiga yo‘naltirilgan mini- loyihalar topshirish.

4. Professor-o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirish: Oliygohda dars berayotgan professor- o‘qituvchilarning o‘zi ham innovatsion texnologiyalarni mukammal egallashi va talabalarga shaxsiy namuna (Roll model) bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamon bilan hamnafas, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘z kasbiy faoliyatiga mahorat bilan tatbiq eta oladigan bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash. Yangi O‘zbekiston ta’lim poydevorini mustahkamlashning eng to‘g‘ri yo‘lidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O‘zbekiston", 2021.

2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (pedagog nazariyotchilar va amaliyotchilar uchun uslubiy qo‘llanma). - T.: Iste’dod, 2010. - 140 b.

3. Xutorskoy A.V. Kompetentnostniy podxod v obuchenii. Nauchno metodicheskoye posobiye. - M.: Izdatelstvo “Eydos”, Izdatelstvo Instituta obrazovaniya cheloveka, 2013. - 73 s.

4. Selevko G.K. Ensiklopediya obrazovatelnix texnologiy: V 2 t. T. 1. - M.: NII shkolnix texnologiy, 2006. - 816 s.

5. Slastenin V.A. i dr. Pedagogika: Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy. - M.: Akademiya, 2013.

6. Jonassen, D. H. (2000). Toward a design theory of problem solving. Educational Technology Research and Development, 48(4), -63-85.